

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

XAITOV BEXZOD SHUXRATOVICH

**MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI
(Pedagogik texnologiya fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya

AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xaitov Bexzod Shuxratovich

Muammoli o'qitish texnologiyalari vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi (Pedagogik texnologiya fani misolida)..... 5

Хайтов Бехзод Шухратович

Методика развития критического мышления студентов посредством технологий проблемного обучения (на примере дисциплины «Педагогическая технология»).....30

Khaitov Bekhzod Shukhratovich

Methodology for developing students' critical thinking through problem-based learning technologies (on the example of "Pedagogical Technology").....60

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published work.....64

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

XAITOV BEXZOD SHUXRATOVICH

**MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI
(Pedagogik texnologiya fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya

AVTOREFERATI

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped3173 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyumi) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.kspi.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qambarova Diloram Yusupovna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarova Rohat Gaybulloyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Artiqova Muhayyo Botiraliyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" oktyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy. Tel: (998) 73-542-38-38; faks: (998) 69-542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy. Tel: (998) 73-542-38-38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "15" oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "14" oktyabr dagi 6 - raqamli reyestr bayonnomasi).



Sherey

N.Sh.Erkaboyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, p.f.d., professor

L.R.Xayitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.d. (PhD), dotsent

M.R.Kadirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi globalashuv jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy jamiyatda tezkor axborot almashinuvi, muammolarni mustaqil hal qilish, yangi bilimlarni egallash va ularni qo'llash qobiliyatlari talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida muammoli yondashuvdan foydalanish talabalarni faol, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak kadrlar tayyorlash tizimida mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash vazifalari yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham muammoli o'qitish texnologiyalari asosida talabalarni turli muammoli vaziyatlarining yechimini to'g'ri topishga o'rgatish, ularda muammo mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammolar yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini, muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish qaratilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida muammoli ta'limni rivojlantirish va shu asosida bo'lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, AQSH, Kanada, Germaniya, Finlandiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar ta'lim amaliyotida muammoga asoslangan o'qitish (Problem-Based Learning) tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda mulohaza yuritish, o'z bilimlari strukturasi yaratish, muammolarni aniqlash, aqliy hujum, farazni shakllantirish, o'quv maqsadlari, mustaqil o'rganishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda¹.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham "Yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa" hamda "Xalqaro maydonda munosib o'rin egallash yo'lida zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan islohotlarni amalga oshirish milliy taraqqiyot strategiya" sining bosh maqsadlaridan biri sifatida belgilanishi ham tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlangan raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Buning uchun esa oliy ta'lim tizimida muammoli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishning metodik tizimini

¹ Inncheon declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

modernizatsiyalash zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Jumladan, talabalarning muammoli vaziyatlarga to‘g‘ri yondasha olmasligi, hayotiy xulosalar yasashda tor fikr yuritishi kabi muammolar tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida etarlicha ilmiy-amaliy hamda metodik ishlar olib borilmayotganidan dalolat beradi. Shu bois talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish vazifalari yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari, “Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali talabalarning intellektual va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratiladi. Shu bilan birga, muammoli ta‘lim texnologiyalarini umumiy pedagogika faniga tatbiq etish jarayoni ushbu fan bo‘yicha ta‘lim sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda yangi imkoniyatlar ochadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni; 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son; 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son; 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari; “Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus” 2017.

g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston ilm-fan va ta'lim sohasida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratmoqda. Turli fanlar bo'yicha olimlar talabalarning tanqidiy fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, R.Safarova, B.Xodjaye, S.Karimova, U.Begimqulov, A.Sharipov, D.Yuldasheva, H.Nasimov, D.Mamatov, B.Suropovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlarini ochib berilgan³.

Muammoli o'qitish texnologiyalari talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu borada O'zbekistonda D.Maxmudova, M.Usmonboyeva, N.Sayidahmedova kabi olimlar bu sohada muhim tadqiqotlar olib borishgan. Ular darslarda muammoli vaziyatlarni yaratish orqali talabalarni fikrlash va mantiqiy tahlil qilishga o'rgatish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar⁴.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlari tomonidan ham tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Ularga O.Kupsov, B.Gershunskiy, E.Baller, Sh.Ganelin, A.Batarshev, T.Ilina, S.Godnik, B.Ananev, L.Vigotskiy⁵, G.Bakirova, A.Leontev, A.Jumabayev, O.Stepanova kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari ham talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan muammoli o'qitish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari borasida Ch.Temple, K.Meredith, B.Bloom⁶, J.Dewey⁷, R.Ennis, R.Paul va L.Elder, J.Piaget, T.Poole, E.Bono⁸ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan. Bu olimlar tomonidan muammoli ta'limga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Shunday qilib, ushbu muammo nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, har bir fan yo'nalishida muammoli o'qitish texnologiyalari yordamida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos metodik yondashuvlari ustida izlanishlar hozirgacha davom etmoqda.

³https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dkJfzLsAAAAJ&citation_for_view=dkJfzLsAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

⁴ M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2018; N.Sayidahmedova. Ta'lim va texnologiya (Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami). – Termiz, 2018.

⁵ "The Vygotsky Reader" (1987, yig'ilgan asarlar to'plami)

⁶ "Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain" (1956)

⁷ John Deweyning "How We Think" kitobi (1910, 1933)

⁸ Edward de Bono'ning "Lateral Thinking: Creativity Step by Step" (1970)

Talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini muammoli o‘qitish texnologiyalari orqali rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, tuzilmasi, komponentlari, omillari, mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash, jarayon modeli, pedagogik texnologiyasi, dasturiy hamda didaktik ta‘minotini ishlab chiqish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Qo‘qon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalari” ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi muammoli ta‘lim texnologiyalari vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda yoritilishini tahlil qilish orqali mazkur jarayonning metodik xususiyatlarini aniqlashtirish;

talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik modelini ishlab chiqish;

muammoli ta‘lim texnologiyalari vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mazmunini yoritib berish;

muammoli ta‘lim texnologiyalari vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning modifikatsion metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida muammoli ta‘lim vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni tanlangan bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Farg‘ona davlat universiteti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining jami 457 nafar talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini muammoli ta‘lim texnologiyalari vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni, modeli va metodikasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (qiyosiy tahlil va analogiya), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik usullar (ma‘lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) dan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida uchraydigan kognitiv to‘siqlar, motivatsion sustkashlik va metodik yetishmovchiliklar tizimli ravishda o‘rganilib, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik

xususiyatlar faol bilish jarayonlari, mustaqil va mantiqiy fikr yuritish, umumlashtirish hamda baholash kabi aqliy operatsiyalarni o'z ichiga olgan universal o'quv harakatlar bilan integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan;

muammoli topshiriqlar turlari, ularning bosqichlari hamda baholash mezonlarini o'z ichiga olgan kompleks metodik model konstruktivizm nazariyasi, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asosida takomillashtirilib, samarali muloqot, matnga asoslangan tafakkur faoliyatlari va o'quv bilimlarini real amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini muammoli ta'lim texnologiyalari bilan didaktik uyg'unlikda bosqichma-bosqich tizimli ishlab chiqilgan;

tanqidiy fikrlashning mazmuni an'anaviy qarashlarda ustuvor bo'lgan aql va tafakkur tanqidiyligiga doir klassik tasavvurlar pedagogik texnologiyalar fanining o'quv-texnik vositalari bilan vertikal va gorizontal integratsiyalashuvi asosida muammoga yo'naltirilgan empirik strategiyalar tatbiq etilgan hamda hamda o'quv mazmunining semantik to'liqligi, kognitiv faolligi va amaliyot bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash orqali ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirilgan;

muammoli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan modifikatsion metodika interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish hamda o'z-o'zini yo'naltirish bosqichlariga asoslangan texnologik mashg'ulotlar orqali muammoli va produktiv ta'limning uyg'unligini hisobga olgan holda, Delfi loyihasi metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“tanqidiy fikrlash ko'nikmalari”, “muammoli ta'lim texnologiyalari”, “muammoli o'qitish” kabi tushunchalarning pedagogik mazmuni aniqlashtirilgan;

muammoli ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning usullarini takomillashtirilgan;

muammoli ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

pedagogik texnologiyalar fanini o'qitishda talabalarni tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi yangi o'quv texnologiyalari va usullari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, predmeti hamda pedagogik vazifalar mohiyatiga muvofiq tadqiqot metodlarining tanlanganligi, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalar sonining talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov ishlarining statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi, olingan natijalarning aniq metodlar yordamida tekshirilganligi, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan

maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma’ruzalari orqali ommalashtirilganligi va ma’qullanganligida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan, takomillashtirilgan metodik tizim va tavsiyalardan ta’lim jarayonida foydalanishi, muammoli ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari, tanqidiy tafakkur, farazlarni rivojlantirishdagi muayyan ilmiy qarashlar tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqilganligi va takomillashtirilganligi, taklif etilayotgan yondashuvlardan oliy ta’lim fan dasturlari, o‘quv va metodik qo‘llanmalarini yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari”, “muammoli ta’lim texnologiyalari”, “muammoli o‘qitish vositalari” kabi tushunchalarning pedagogik mazmuni aniqlashtirilganligi, muammoli ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish modeli takomillashtirilganligi, muammoli o‘qitish vositalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishning texnologik asoslari va shart-sharoitlari takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida uchraydigan kognitiv to‘siqlar, motivatsion sustkashlik va metodik yetishmovchiliklar tizimli ravishda o‘rganilib, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik xususiyatlar faol bilish jarayonlari, mustaqil va mantiqiy fikr yuritish, umumlashtirish hamda baholash kabi aqliy operatsiyalarni o‘z ichiga olgan universal o‘quv harakatlar bilan integratsiyalashga doir taklif va mulohazalar asosida “Umumiy pedagogika” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan hamda tajriba-sinov obyektlarida ommalashtirilgan. (Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2024-yil 22-iyuldagi 8-son majlis bayoni bilan tasdiqlandi). Natijada muammoli o‘qitish texnologiyalari asosida talabalarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik ta‘minotini takomillashtirishga erishilgan;

muammoli topshiriqlar turlari, ularning bosqichlari hamda baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan kompleks metodik model konstruktivizm nazariyasi, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi asosida takomillashtirilib, samarali muloqot, matnga asoslangan tafakkur faoliyatlari va o‘quv bilimlarini real amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini muammoli ta’lim texnologiyalari bilan didaktik uyg‘unlikda bosqichma-bosqich ishlab chiqishga doir tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-raqamli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan va mazkur loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o‘z

aksini topgan. (Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universitetining 2021-yil 11-noyabrdagi 04/11-11089-sonli maʼlumotnomasi).

tanqidiy fikrlashning mazmuni anʼanaviy qarashlarda ustuvor boʻlgan aql va tafakkur tanqidiyligiga doir klassik tasavvurlar pedagogik texnologiyalar fanining oʻquv-texnik vositalari bilan vertikal va gorizontol integratsiyalashuvi asosida muammoga yoʻnaltirilgan empirik strategiyalar tatbiq etilgan hamda hamda oʻquv mazmunining semantik toʻliqligi, kognitiv faolligi va amaliyot bilan uzviy bogʻliqligini taʼminlash orqali ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirilishiga oid taklif va tavsiyalaridan OʻzMRK “Oʻzbekiston” teleradiokanali DMda 2022-2024-yillarda efirga uzatilgan “Talim va taraqqiyot”, “Oʻzbekiston yoshlari” dasturlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanildi. (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 18-oktyabrdagi 04-36/1120-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarning keng miqyosida ommalashtirishga erishilgan.

muammoli taʼlim texnologiyalari vositasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan modifikatsion metodika interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish hamda oʻz-oʻzini yoʻnaltirish bosqichlariga asoslangan texnologik mashgʻulotlar orqali muammoli va produktiv taʼlimning uygʻunligini hisobga olgan holda, Delfi loyihasi metodologiyasiga doir taklif va xulosalardan Oʻzbekiston Milliy universitetida 2023-2024-yillarda bajarilgan FZ-2020010829-raqamli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy koʻnikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 29-noyabrdagi 11-05-6864/04-sonli maʼlumotnomasi). Natijada talabalarning tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga doir adaptiv va innovatsion metodlarni qoʻllash samaradorligiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, 7 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat boʻlib, ishning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoli o'qitish texnologiyalarining nazariy-asosiy tamoyillari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati va pedagogik jarayonda muammoli ta'limning o'rni, pedagogik asoslari va imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim maqsadlaridan biridir. Bu ko'nikmalar talabalarga murakkab masalalarni hal qilish, xulosalar olish va o'z fikrlarini asoslashda yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari – bu ma'lumotni to'g'ri baholash, tahlil qilish, sinflashtirish va uning asosida xulosalar chiqarish qobiliyatidir⁹. Tanqidiy fikrlash jamiyatdagi muammolarni hal qilishda, qaror qabul qilishda va ijodiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasida ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarini olib borgan va o'z fikrlarini bildirgan. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan sharq allomalarini eslab o'tishni joiz deb bildik. Masalan, Abu Nasr al-Farobiyning fikricha, insonni komil qiluvchi asosiy narsa bilim va tafakkurdir. U o'zining “Fozil odamlar shahri” nomli asarida tanqidiy va tahliliy fikrlashning muhimligini ta'kidlagan, chunki fozil shahar aholisi bilimga intilib, haqiqatni aql va tahlil bilan izlashadi. Abu Ali Ibn Sino Sharq falsafasi va tibbiyotining ulkan namoyandasi bo'lib, tahliliy va tanqidiy fikrlashga katta ahamiyat bergan. Ularning asarlarida inson aqlini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga undash va ilmiy izlanishlarga asoslangan yondashuvlar keng o'rin olgan¹⁰.

Ch.Temple va K.Meredith – asosan savodxonlik va tanqidiy fikrlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan¹¹. Ular ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni kuchaytirish va o'quvchilarda fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish usullari bo'yicha ishlab chiqqan modellari bilan mashhur¹². Ularning asosiy ilmiy ishlari “O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlash” (Reading and writing for critical thinking – RWCT) hamda “Tanqidiy fikrlash shakllari” (Critical Thinking

⁹ Robert Ennis, Richard Paul, Linda Elder, va Diane Halpern kabi olimlar o'z asarlarida.

¹⁰ Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 160 b

¹¹ <https://scientific-ij.org/obr/article/view/1536>

¹² (Reading and writing for critical thinking – RWCT) <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1901>

Patterns) modelida ko‘rishimiz mumkin. Masalan “Critical Thinking Patterns” modelida tanqidiy fikrlashning bosqichlarini belgilab berilgan bo‘lib¹³: unda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun faol kognitiv strategiyalar va tajribaga asoslangan yondashuvlarni ilgari surishgan¹⁴.

Ushbu tadqiqotchilar o‘qitish jarayonida tahlil qilish, umumlashtirish, baholash va xulosa chiqarish kabi kognitiv jarayonlarning ahamiyatini ta’kidlab, tanqidiy fikrlashning muammoli vaziyatlar orqali shakllanishi g‘oyasini ilgari surilgan.

Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muayyan aqliy operatsiyalar (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, baholash) va universal o‘quv harakatlari bilan integratsiya qilinishi orqali izchil shakllantirishga asoslangan.

Farqi: Ch.Temple va K.Meredith tanqidiy fikrlashni umumiy fikrlash shakllari orqali rivojlantirishni taklif qilsa, bizning tadqiqot ishimizda tanqidiy fikrlashni aniq aqliy operatsiyalar bilan bog‘lab, ularni universal o‘quv harakatlari bilan integratsiya qilish yondashuvini ilgari suriladi¹⁵. “Critical Thinking Patterns” da tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun asosan umumiy tafakkur jarayonlarini o‘rgatishga e’tibor qaratilsa, bizning ilmiy yangilikda esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yondashuvini taklif etadi: (1-jadval)

Aqliy operatsiya va universal o‘quv harakatlarini ta’lim jarayonida qo‘llanilishi

1-jadval

Aqliy operatsiya	Universal o‘quv harakatlar	Ta’lim jarayonida qo‘llanilishi
Analiz (tahlil qilish)	Kognitiv harakatlar	Matn, ma’lumot yoki hodisalarni tahlil qilish
Sintez (birlashtirish)	Regulyativ harakatlar	Olingan bilimlarni yangi bilimlarga bog‘lash
Taqqoslash	Kognitiv va kommunikativ harakatlar	Turli tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish
Umumlashtirish	Shaxsiy va reflektiv harakatlar	Asosiy g‘oyalarni ajratib, xulosa chiqarish
Baholash	Regulyativ va kommunikativ harakatlar	O‘z fikrini asoslash, dalillar orqali tasdiqlash

¹³ Reading and writing for critical thinking – RWCT) (Critical Thinking Patterns <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1901> 1998 y.

¹⁴ L.R. Mo‘minova, Sh.M.Amirsaidova, MAXSUS PSIXOLOGIYA 2013

¹⁵ Reading and writing for critical thinking – RWCT) (Critical Thinking Patterns <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/1901> 2000 y.

Ilmiy izlanishlar natijasida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muayyan aqliy operatsiyalarni universal o'quv harakatlari bilan integratsiyalash bo'yicha yangi metodik yondashuv ishlab chiqishni talab etdi. Ushbu yangilikning ilgari tadqiq qilinmagan yoki yetarlicha yoritilmagan jihatlarini asoslash uchun quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda aqliy operatsiyalar va o'quv harakatlarining integratsiyasi, ilgari olib borilgan tadqiqotlarda, masalan, B.Xodjajev, R.Safarova A.To'ychiyev tomonidan tanqidiy fikrlashning tarkibiy qismlari va darajalari o'rganilgan. N.Mamadjanova esa tanqidiy fikrlashning mohiyati va uni rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilgan¹⁶.

Biroq ushbu tadqiqotlarda aqliy operatsiyalarni universal o'quv harakatlari bilan integratsiya qilish masalasi chuqur o'rganilmagan.

Ammo tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda aqliy operatsiyalar va o'quv harakatlarini integratsiyalash orqali metodik yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalasi yetarlicha yoritilmagan.

Yuqoridagi omillar ushbu ilmiy tadqiqotimizning ilmiy yangiligi va ilgari mavjud bo'lmagan jihatlarini ko'rsatib beradi va aqliy operatsiyalarni universal o'quv harakatlari bilan integratsiya qilish orqali talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik texnologiyalar fanida qo'llanilgan metod va usullar misolida yoritib o'tilgan. Mazkur jadvalda integratsiya yo'nalishlari, bosqichlari, pedagogik texnologiyalar fanidagi namoyon bo'lishi hamda qo'llaniladigan metodlar ko'rsatilgan. (2-jadval)

Pedagogik texnologiyalar fanidagi namoyon bo'lishi

2-jadval

Bosqichlari	Pedagogik texnologiyalar fanidagi namoyon bo'lishi	Qo'llaniladigan metodlar
Aqliy operatsiyalarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish va ilgari o'rganilgan bilimlar bilan uyg'unlashtirish	Muammoli ta'lim asosida talabalar dastlab didaktik masalalarni tahlil qiladi, so'ng sintez orqali yechimlar ishlab chiqadi. O'quv jarayoni avvalgi bilimlarga asoslanib bosqichma-bosqich chuqurlashtiriladi.	<p style="text-align: center;">- Zanjirli fikrlash (bosqichma-bosqich fikrlash)</p> <p style="text-align: center;">- Klaster usuli (asosiy tushunchalarni bog'lash)</p>
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini turli fan va mavzular kontekstida qo'llash	Talabalar turli ta'lim metodlarini taqqoslab, samaradorligini baholaydi va real ta'lim jarayoniga moslashtiradi. Turli fanlar va mavzular o'zaro bog'lanadi.	<p style="text-align: center;">- Venn diagrammasi (o'xshash va farqli jihatlarni taqqoslash)</p> <p style="text-align: center;">- SWOT tahlil (metodlarning kuchli va zaif tomonlarini baholash)</p>

¹⁶ R.H.Ennis. Applying soundness standards to qualified reasoning. Informal Logic, 24, 1, 23-39. 2004

Muammoli o'qitish texnologiyalari muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan buyon shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan.

Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj.Dyui 1894-yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borilgan. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni talabalarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

M.I.Maxmutov esa Rubinshteynning fikrlash jarayoni doimo muammoli vaziyatdan boshlanadi, degan fikriga qo'shiladi. Maxmutovning ta'kidlashicha, muammoli o'qitishning asosiy vazifasi talabalarni fikrlashga undash uchun ularni muammoli vaziyatlarga jalb qilishdir. Bu jarayonda talabalar mavjud bilimlari va yangi ma'lumotlar o'rtasidagi ziddiyatni his qilib, mustaqil ravishda yechim izlaydilar¹⁷.

V.Okonning ta'kidlashicha, muammoli vaziyatlar o'quv jarayonining markaziy elementidir. U talabalarni tanqidiy fikrlashga undaydigan va ularda yangi bilimlarni o'zlashtirishga qiziqish uyg'otadigan vaziyatlarni yaratish zarurligini qayd etadi. Bu vaziyatlarda talabalar o'z bilimlarini qo'llab, yangi xulosalar chiqaradi¹⁸.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotimizni Ch.Temple va K.Meredith hamda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning konsepsiyalariga asoslanib, ularni yangi metodik jihatlar bilan kengaytirildi va talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning metodik xususiyatlari muayyan aqliy operatsiyalarning faol va tajriba orqali bilish, mushohada yuritish, umumlashtirish va baholash bosqichlaridagi universal o'quv harakatlari bilan vertikal va gorizontaal yo'nalishlar bo'yicha integratsiyasini ta'minlash orqali aniqlashtirildi.

Dissertatsiyaning "**Muammoli o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida muammoli topshiriqlar turlari, ularning bosqichlari hamda baholash mezonlarini o'z ichiga olgan kompleks metodik model konstruktivizm nazariyasi, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asosida takomillashtirilib, samarali muloqot, matnga asoslangan tafakkur faoliyatlari va o'quv bilimlarini real amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini muammoli ta'lim texnologiyalari bilan didaktik uyg'unlikda bosqichma-bosqich tizimli ishlab chiqilgan;

¹⁷ Махмутов М.И. "Проблемное обучение. Основные вопросы теории". Москва,

¹⁸ Okoń W. "Wprowadzenie do dydaktyki ogólnej". Warszawa, 1995.

Ushbu didaktik modelning takomillashtirilishi natijasida:

1. Talabalar muloqot va muhokama jarayonlarida faol ishtirok etib, o'z fikrlarini asoslash hamda boshqalarning fikrlarini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2. Matn asosida ishlash orqali talabalar informatsion tafakkurni rivojlantirib, matnni tahlil qilish, umumlashtirish va baholash qobiliyatiga ega bo'ladi.
3. Turli yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi (komplementarlik) tufayli talabalarning tanqidiy fikrlashi mustahkamlanib, o'z bilimlarini boshqa fan va kontekstlarga ko'chira olish qobiliyati rivojlanadi.
4. O'quv-bilish jarayoni bilan real hayotiy vaziyatlar o'rtasida bog'liqlik kuchayib, talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda tatbiq qilish orqali qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.
5. Refleksiya jarayoni orqali talabalar o'z fikrlash jarayonlarini anglaydi, baholaydi va takomillashtiradi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. (3-jadval)

Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik modelining tashkiliy-pedagogik komponenti

3-jadval


Komponent	Mazmuni	Talabani rivojlanishiga ta'siri
Kommunikativlik	Talabalar o'zaro fikr almashadi, muhokama qiladi, dalillar orqali qaror qabul qiladi.	Mantiqiy fikrlash, asoslangan argument keltirish va jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
Matnga yo'nalganlik	Matn asosida tahlil, dalillash, xulosa chiqarish va baholash jarayonlari amalga oshiriladi.	O'qilgan matnni tushunish, tanqidiy tahlil qilish va asosli qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.
Komplementarlik	O'qitish jarayonida turli metod va texnologiyalar bir-birini to'ldiruvchi tarzda uyg'unlashtiriladi.	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir necha yondashuvni sintez qilish ko'nikmasi shakllanadi.
O'quv-bilishdan hayotiy vaziyatlarga o'tish	Olingan nazariy bilimlar real hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltiriladi.	O'rgangan bilimlarni amaliyotda qo'llash, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati ortadi.
Refleksiya	O'z fikrlash jarayonini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va to'g'rilash.	Mustaqil fikr yuritish, o'z bilim darajasini baholash va o'z-o'zini rivojlantirishga intilish kuchayadi.

Muammoli o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning didaktik modeli

1-rasm

Ijtimoiy buyurtma: Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishga qo'yiladigan malaka talablar.


MAQSADGA YO'NALTIRILGAN KOMPONENT




JARAYONLI-MAZMUNLI KOMPONENT




TASHKILIY-PEDAGOGIK KOMPONENT



METODLAR



DIAGNOSTIK KOMPONENT



Natija: OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TANQIDIY FIKRLASHI RIVOJLANGAN TALABA

Muammoli o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, professor-o'qituvchilarning talabalarga mos keladigan ta'lim uslubi va rivojlanish strategiyasini aniqlash, turli

Mazkur model 4 ta komponentlarni o'z ichiga qamrab oldi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Maqsadga yo'naltirilgan komponent.
2. Jarayonli-mazmunli komponent.
3. Tashkiliy-pedagogik komponent.
4. Diagnostik komponent.

“Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qo'yiladigan malaka talablar”i asosida quyidagi didaktik modeli takomillashtirildi va ular bo'yicha har bir blok uchun misollar bilan izohlar beriladi. (1-rasm)

1. Maqsadga yo'naltirilgan komponenti: Maqsad: Talabalarda tanqidiy fikrlashlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. **Vazifa:** Muammoli o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishning metodik asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish. **Tamoyillar** bu o'qitish va o'rganish jarayonida amal qilinadigan asosiy qoidalar va yo'nalishlar bo'lib, ular ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga yordam beradi.

Yondashuvlar – bu o'qitish jarayonida maqsadga erishish uchun tanlanadigan uslubiy va nazariy asoslar tizimi.

Muammoli yondashuv bu o'quv jarayonida talabalarni faol fikrlashga, muammolarni aniqlash va hal qilishga yo'naltiradigan metodologik yondashuv.

Empirik yondashuv – bu tajriba, kuzatish va amaliy sinovlar orqali bilim olishga asoslangan metodologik yondashuv.

2. Jarayonli-mazmunli komponent bu ta'lim jarayonida muayyan maqsadlarga erishish uchun o'quv mazmunini shakllantirish va uni samarali o'zlashtirishni ta'minlovchi metodik yondashuvlar tizimi. Bu jarayon 4 bosqichdan iborat.

3. Tashkiliy-pedagogik komponent bu komponent tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Kommunikativlik, matnga yo'nalganlik, komplementarlik, o'quv-bilishdan hayotiy vaziyatlarga o'tish.

4. Pedagogika fanlari imkoniyatlari “Pedagogika tarixi”, “Umumiy psixologiya”, “Pedagogik texnologiyalari bilan bog'liq holda ishlab chiqildi.

5. Diagnostik komponent Yuqori daraja: bunda talabalarning chuqur fikrlashi, murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga asoslangan ta'lim bosqichi. O'rta daraja: bunda talabalarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma'lumotlarni taqqoslash, xulosa

chiqarish va aniq argumentlar asosida o‘z fikrlarini shakllantirish bosqichi. Past daraja: Talaba o‘z fikrlarini shakllantirishda qiynaladi.

Metodlar: Muammo-yuzasidan o‘ylash, Venn diagrammasi, Debatlar, Suqrotona savol-javob, Bloom taksonomiyasi asosida savollar, Klaster (g‘oya xaritasi), Tahliliy esse yozish metodlaridan foydalanildi.

Mezonlar: *motivatsion mezon* talabaning tanqidiy fikrlashga bo‘lgan ichki va tashqi qiziqishini, o‘zini rivojlantirishga intilishini aniqlash uchun ishlatiladi; *Intellektual-kognitiv mezon* talabaning fikrlash jarayoni, aqliy operatsiyalarni bajarish qobiliyati va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi; *Emotsional mezon* talabaning tanqidiy fikrlash jarayonida hissiy barqarorligi, o‘z fikrlarini ifodalash va bahs-munozaralarda ishtirok etish qobiliyatini o‘lchaydi; *Amaliy mezon* talabaning tanqidiy fikrlashni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash darajasini o‘lchaydi. Ushbu to‘rtta mezon talabalar tanqidiy fikrlash darajasini baholash uchun zarur.

Natija: Tanqidiy fikrlashi rivojlangan talaba dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish, loyihalar ishlab chiqish, bahs va muzokaralar olib borish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, uning mazmuni va rivojlantirish metodlari bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. An’anaviy yondashuvlarda “aqlning tanqidiyligi” va “fikrning tanqidiyligi” kabi nazariy asoslar ustuvor o‘rin tutadi. Biroq bizning ilmiy tadqiqot ishimizda muammoli ta’lim texnologiyalari orqali talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish masalasi empirik yondashuv asosida, muammoga yo‘naltirilgan strategiya va texnikalar vositasida takomillashtirilgan.

1. Nazariy va empirik yondashuvlar o‘rtasidagi tafovutlar An’anaviy nazariy yondashuvlar tanqidiy fikrlashni umumiy mantiqiy tahlil doirasida o‘rganib, asosan konseptual tushunchalar va falsafiy asoslar orqali tavsiflaydi. Bu yondashuvda tanqidiy fikrlashning mohiyati, uning shakllanishi va rivojlanishi abstrakt kategoriya sifatida ko‘rib chiqiladi.

Empirik yondashuv – bu tajriba, kuzatish va amaliy faoliyatga asoslangan bilim olish usuli bo‘lib, nazariy taxminlarga emas, balki real faktlar, eksperimentlar va tahlillarga tayanadi. (2-rasm)

2. Muammoli ta’lim texnologiyalarining roli Muammoli ta’lim talabalarning mustaqil izlanish olib borishiga, mavjud axborotlarni tanqidiy tahlil qilishga, muammoni chuqur anglash va asosli xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan. Ushbu texnologiyalar quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqilgan:

3. Muammoli ta'lim texnologiyalariga asoslangan strategiya va texnikalar Quyidagi muammoga yo'naltirilgan strategiyalar tanqidiy fikrlashni shakllantirishda samarali vositalar hisoblanadi:

- **Suqrotona savol-javob metodi** – talabalarni muhokama va mulohaza qilishga jalb qilish uchun turli darajadagi savollar tizimidan foydalanish;
- **Keys-stadi (case study) usuli** – amaliy hayotiy muammolarni tahlil qilish orqali talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- **Muammoli topshiriqlar** – noaniq javoblarga ega bo'lgan, muayyan fikrlash faoliyatini talab qiluvchi masalalar asosida talabalarning fikrlash jarayonlarini faollashtirish;
- **Debat va bahs-munozaralar** – talabalarning har xil nuqtai nazarlardan kelib chiqib, dalillar asosida fikr yuritish malakalarini rivojlantirish;

Ikki xil yondashuvni Venn diagrammasida ko'rinishi



2-rasm

Xulosa qilsak, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali yo'nalishi bo'lib, nazariy yondashuvlardan farqli ravishda empirik asosga ega. Ushbu texnologiyalar orqali talabalar real muammolar bilan ishlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z fikrlarini asoslash ko'nikmalarini shakllantiradilar. Shu sababli muammoli ta'lim texnologiyalariga asoslangan empirik yondashuvni keng joriy etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. (4-jadval)

Empirik yondashuv va nazariy yondashuv farqi

4-jadval

Xususiyat	Empirik yondashuv	Nazariy yondashuv
Asos	Tajriba, kuzatish, amaliy faoliyat	Nazariy tushunchalar, g'oyalar
Bilim olish usuli	Eksperiment va real vaziyatlarni o'rganish	Mavjud ilmiy nazariyalarga asoslanish
Natijalar	Amaliy isbotlangan, hayotiy foydali bilimlar	Mantiqiy dalillarga asoslangan umumiy tushunchalar
Misol	Talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi muammoli ta'lim asosida tajriba orqali o'rganiladi	Tanqidiy fikrlash mohiyati nazariy manbalar asosida tushuntiriladi

